

**YETIM VA OTA-ONA QARAMOG'IDAN MAHRUM BO'LGAN BOLALARING
HUQUQ VA MANFAATLARINI HIMOYA QILISH MEXANIZMI**

Sevaraxon Muxammadova Nazirjon Qizi

Farg'ona davlat universiteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada aholining davlat qaramog'iga muhtoj toifalari, yetim bolalar va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi masalalar yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Yetim bolalar, ota -ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar, vasiylik, homiylik, patranat uylar, ijtimoiy yetimlik, biologik yetimlik*

KIRISH

O'zbek xalqi-bolajon xalq deb beziz aytishmaydi. O'zbekistonda azaldan oila va bola qadri juda baland. Ushbu maqol ikkinchi jahon urushi yillarida ham o'zining amaliy tasdig'ini topgan. O'zbek xalqi 300 mingdan ortiq qarovsiz qolgan bolalarni o'zining issiq bag'rige olib katta qilgan edi. "Sen yetim emassan "deb, o'zining bir burda nonini ham ana shu bolalar bilan birgalikda beminnat baham ko'rgan. Bugungi kunda ham bunday bolalar yo'q emas.

Hozirgi kunda aholining maxsus qaramoqqa muhtoj qatlamlari orasida – yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar alohida o'rinn egallaydi. So'nggi yillarda aholi o'rtasida biologik yetimlikdan ko'ra ijtimoiy yetimlikning soni ortib bormoqda. Mamlakatimizda ijtimoiy yetimlikning oldini olish, ahloli va yoshlar orasida sog'lom oila qurishga mas'uliyat bilan yondashishni targ'ib qilish, oilaviy qadriyatlarga ma'naviy-axloqiy munosabatni shakllantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Muhokama va natijalar

Hayot sharoiti tufayli yetim va ota-ona qaramog'idan qolgan bolalar davlat organlari himoyasi bilan tamunlanishi kerak. O'zbekiston Respublikasida yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum b o'lgan bolalarninghuquq va manfaatlarini himoya qilishning izchil mexanizmlari yo'lga qo'yilgan. Muhtaram Prezidentimiz SM. M. Mirziyoyev tomonidan 2021-yil 9-avgust kuni "Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror imzolandi.

Hujjatga muofiq 2021-yil 15-avgustdan boshlab o'zlariga biriktirilgan turar joyga ega bo'limgan va turar joyga muhtojlar sifatida hisobda turgan yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga 18 yoshga to'lgan yilda:

. ko'p kvartirali uy-joylardan umumiyl maydoni 25 kvadrat metrdan kam bo'limgan 1 xonali;

. voyaga yetgan yetim bolalar o'rtasida nikoh tuzilgan hollarda , 50 kvadrat metrdan kam bo'limgan 2 xonali kvartiralar ajratiladi. Bunda mazkur toifaga kiruvchi

nogironligi bo'lgan bolalarga kvartiralar ko'p qavatli uylarning uchinchi qavatigacha ajratiladi.

Yetim bolalar va ota-onalarning qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar kollej, akademik litsey, texnikum va oliy ta'limga muassasalarida o'qiyotgan davrlarida mahalliy hokimliklar tomonida ajratilgan uy-joylarda kommunal xizmatlar uchun to'lov larning 50%ini tegishli tuman va shahar mahalliy budgetlarining qo'shimcha manbalari hisobidan kompensatsiya qilinadi.

2021-2022-o'quv yilidan boshlab " SOS-bolalar mahallalari " oilaviy bolalar uylari bitiruvchilariga vasiylikka, homiylikka yoki oilaga tarbiyaga olingan yetim bolalarga abuturienlarni qabul qilishning umumiyligi sonidan qo'shimcha 1% gacha davlat granti asosidagi qabul kvotalaridan foydalanish imkoniyati beriladi. Yetim bolalar va ota -ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar ota-onalarining yaqin qarindoshlariga ushbu bolalarni navbatsiz farzandlikka yoki oilaga tarbiyaga (patronatga) olish huquqi beriladi.

O'zbekistonda yetim bolalar va ota-onalarning qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar uchun " Mehr daftari " yuritiladi. " Mehr daftari" dagi bolalar 25 yoshga to'lganlarida ushbu ro'yxatdan chiqariladi

" SOS O'zbekiston Bolalar Mahallalari " Uyushmasi 1997-yilda bolalarning farovonligini ta'minlash , ularning manfaatlari va huquqlarini himoya qilish va ehtiyojlarini qondirish maqsadlarida tashkil etilgan nodavlat notijorat tashkiloti hisoblanadi. Ota-onasining qaramog'isiz qolgan yoki ijtimoiy yetimlik havfi ostida bo'lgan bolalar va yoshlar , shuningdek qiyin hayotiy vaziyatga tushib qolgan oilalar tashkilot faoliyatining diqqat markazidadir.

Uyushma dasturlari doirasida bolalar va oilalar ota-onasining qaramog'isiz qolgan bolalar va yoshlar uchun oila muhitini yaratishga , qiyin hayotiy vaziyatga tushib qolgan oilalarni mustahkamlashga va ijtimoiy yetimlik havfini kamaytirishga qaratilgan kompleks , izchil va uzluksiz xizmatlarga ega bo'ladilar. Barcha xizmatlar quyidagi tuzilmalar doirasida taqdim etiladi: oilaviy vasiylik , yoshlarga vasiylik qilish , oilani mustahkamlash bo'yicha tuzilmalar.

Uyushmaning 4 ta muhim tamoyili mavjud :

1. Har bir bola g'amxo'r ota yoki onaga ega
2. Oilaviy aloqalar tabiiy yo'l bilan rivojlanadi
3. Har bir oila o'z uyini yaratadi
4. SOS-oila jamiyatning bir qismi hisoblanadi

Xulosa

Xulosa o'rnida shu narsani ta'kidlab o'tish lozimki , xalqimiz azaldan bolajon xalq bo'lib , "bol shirin , boldan-bola shirin " tamoyili asosida yashab kelmoqda. Bugungi kunda ota-onalarimizning o'z oilalariga befarqligi tufayli bolalarni qarovsiz qoldirib bazi hollarda tirik bo'la turib ularni yetimlikka mahkum etib qo'yishmoqda. Har bir oila " chumchuqning ham ini buzilmasin " prinsipiiga amal qilib yashasa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.Sh.M. Mirziyoyev "Yetim bolalar va ota-onas qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni tarbiyalashning tubdan yangilangan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-5215-son qarori

2.Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 17-yanvardagi "Yetim bolalar ota-onas qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni har tomonlama qo'llab- quvvatlashga qaratilgan " Mehr daftari "tizimini joriy etish chora tadbirleri tog'risida"gi 26-son qarori

3.Advice.uz